# FE'L TURKUMI VA NUTQIY FAOLIYAT FE'LLARINING JAHON TILSHUNOSLIGIDA O'RGANILISHI: NAZARIY YONDASHUVLARNING QIYOSIY TAHLILI

**X. Ibotova**
*Axborot texnologiyalari va menejment universiteti, "Filologiya" kafedrasi assistent o'qituvchisi, Qarshi, O'zbekiston*

**Annotatsiya.** Maqolada fe'l turkumi va uning ma'noviy guruhlaridan biri – nutqiy faoliyat fe'llarining jahon tilshunosligida o'rganilish yo'nalishlari tahlil qilinadi. Tadqiqot materiali sifatida ingliz va rus tilshunosligiga oid 1956–2009 yillardagi o'nta nazariy manba tanlandi. Manbalar o'rganish obyekti, empirik bazasi va metodiga ko'ra to'rt yo'nalishga – struktur-grammatik, semantik-temporal (tarixiy-semantik), pragmatik-semantik va funksional-kognitiv yo'nalishlarga – guruhlandi. Tahlil fe'l tadqiqi shakl tavsifidan ma'no, kommunikativ niyat va konsept modellashtirishga qarab rivojlanganini, ko'rib chiqilgan ishlarning barchasi bir tilli (ingliz tili) materialga tayanishini ko'rsatdi. Nutqiy faoliyat fe'llarini ingliz va o'zbek tillarida chog'ishtirma-leksikografik o'rganish dolzarb ekani asoslandi.

**Kalit so'zlar:** fe'l turkumi, nutqiy faoliyat fe'llari, semantik maydon, prototip, nutqiy akt, tabiiy semantik metatil, konsept, chog'ishtirma tilshunoslik.

**Abstract.** The article examines how the verb class and one of its semantic groups, speech-activity verbs, have been studied in world linguistics. Ten theoretical sources on English and Russian linguistics (1956–2009) are classified into four approaches: structural-grammatical, semantic-temporal (historical-semantic), pragmatic-semantic and functional-cognitive. The analysis shows a gradual shift from describing verb forms to modelling meaning, communicative intention and concepts, and reveals that all reviewed studies rely on monolingual (English) material. The study substantiates the need for a contrastive-lexicographic investigation of speech-activity verbs in English and Uzbek.

**Keywords:** verb class, speech-activity verbs, semantic field, prototype, speech act, natural semantic metalanguage, concept, contrastive linguistics.

## 1. KIRISH (INTRODUCTION)

Fe'l so'z turkumi murakkab grammatik kategoriyalari, boy semantik tarkibi va gapning markaziy o'zagini tashkil etishi bilan jahon tilshunosligida doimo tadqiqotchilar diqqat markazida bo'lib kelgan. Antik davr grammatik ta'limotlaridan hozirgi lingvistik oqimlargacha fe'l voqelikdagi harakat, jarayon va holatni aks ettiruvchi eng dinamik lisoniy hodisa sifatida talqin qilinadi. Struktur va funksional tilshunoslik doirasida turkum birliklari nafaqat morfologik ko'rsatkichlari, balki semantik valentligi, gap bo'laklarini biriktirish salohiyati va predikativlik tabiatiga ko'ra ham tizimli o'rganildi [1–5].

XX asrning ikkinchi yarmidan pragmalingvistika va nutqiy aktlar nazariyasining shakllanishi fe'l tadqiqini sof grammatik qoliplardan jonli muloqot jarayoniga olib chiqdi. Natijada insonning bevosita aloqa-aralashuvini, ijtimoiy munosabatlarini va kommunikativ niyatini ifodalovchi nutqiy faoliyat fe'llari kognitiv va diskursiv nuqtayi nazardan yangicha yondashuvlar asosida o‘rganila boshladi [7–10].

Mazkur yondashuvlar turli nazariy maktablar doirasida, turli obyekt va metodlar asosida shakllanganligi sababli ularning o‘zaro munosabati va nutqiy faoliyat fe'llarini mustaqil mikrotizim sifatida tahlil qilish uchun ahamiyati tizimlashtirishni talab qiladi. Tadqiqotning maqsadi – jahon tilshunosligida fe'l turkumi va nutqiy faoliyat fe'llarini o‘rganishning asosiy yondashuvlarini aniqlash, tasniflash va ularning metodologik imkoniyatlarini baholash. Buning uchun quyidagi vazifalar belgilandi: (1) tanlangan manbalarning obyekti, empirik bazasi va metodini aniqlash; (2) ularni nazariy yo‘nalishlar bo‘yicha guruhlash; (3) yo‘nalishlar rivojidagi qonuniyatni ko‘rsatib, ingliz–o‘zbek chog‘ishtirma tadqiqotlar uchun xulosalar chiqarish.

## 2. METODLAR (METHODS)

Tadqiqot nazariy-analitik sharh xarakteriga ega. Manbalar uch mezon bo‘yicha tanlandi: (a) tadqiqot obyekti ingliz tili fe'li yoki uning ma'noviy guruhi bo‘lishi; (b) ish fe'lni tizim sifatida yoki alohida leksik-semantik guruh sifatida o‘rgangan monografik yoki dissertatsion tadqiqot bo‘lishi; (c) natijalari nutqiy faoliyat fe'llarining grammatik va semantik asoslarini anglash uchun bevosita ahamiyatga ega bo‘lishi. Natijada 1956–2009 yillarga oid o‘nta manba – ingliz tilida nashr etilgan yettita asar va rus tilshunosligidagi uchta nomzodlik dissertatsiyasi – tahlilga tortildi.

Tahlilda tavsifiy-analitik, qiyosiy va tasniflash metodlaridan hamda kontent-tahlildan foydalanildi. Har bir manba to‘rt parametr bo‘yicha tavsiflandi: tadqiqot obyekti, empirik baza, nazariy-metodologik asos va asosiy xulosa; so‘ngra manbalar obyekt va metodologik paradigma yaqinligiga ko‘ra yo‘nalishlarga ajratildi. Sharh tanlanma xarakterga ega bo‘lib, mavzu bo‘yicha barcha tadqiqotlarni qamrab olishga da'vo qilmaydi.

## 3. NATIJALAR VA TAHLIL (RESULTS)

**1-jadval. Tahlil qilingan manbalarning umumiy tavsifi**

| | Muallif, yil | Tadqiqot obyekti | Yondashuv, metod | Asosiy natija |
|---|---|---|---|---|
| | M. Jus (Joos), 1964 [1] | Ingliz fe'lining shakli va ma'nosi | Empirik tavsif (sud stenogrammalari), binar oppozitsiyalar | Sakkiz o‘lchamli model; zamon – “o‘tgan / o‘tgan bo‘lmagan” oppozitsiyasi |
| | G. Leykof (Lakoff), 1966 [2] | Faol va nofaol (stativ) fe'llar | Sintaktik sinovlar | Nofaol fe'llar davomiy shakl va buyruq mayli bilan kelmaydi; irodaviy nazorat mezoni |

| | Muallif, yil | Tadqiqot obyekti | Yondashuv, metod | Asosiy natija |
|---|---|---|---|---|
| | R. Palmer, 1968 [3] | Ingliz fe'l tizimi | Deskriptiv-struktur tahlil | Yordamchi va mustaqil fe'llar chegarasi; zamon, aspekt, mayl, nisbat; frazali fe'llar |
| | G.N. Leech, 1971 [4] | Fe'lning gap mazmuniga ta'siri | Semantik tahlil | Zamon – so'zlovchi idroki; aspektga ichki va tashqi nuqtayi nazar; holat fe'llari |
| | B. Comrie, 1986 [5] | Zamon kategoriyasi | Deyktik-tipologik tahlil | Mutlaq va nisbiy zamon; zamon va aspekt chegarasi; kelasi zamon va modallik |
| | E. Pentilla (Penttilä), 1956 [6] | Qadimgi ingliz tilidagi ko'rish fe'llari | Tarixiy-semantik, kognitiv baholash | Sensor ma'nodan aqliy ma'noga ko'chish; maqsadli va beixtiyor ko'rishning farqi |
| | A. Vejbitska (Wierzbicka), 1987 [7] | 250 dan ortiq nutqiy akt fe'li | Tabiiy semantik metatil (NSM) | 37 semantik guruh; semantik ibtidolar orqali ta'rif; tavtologiyadan voz kechish |
| | O.D. Dvornik, 2003 [8] | Nutq fe'llarining funksional kategorizatsiyasi | Funksional-semiologik va prototipik yondashuv; 4000 dan ortiq misol | *tell, say, speak* prototiplari asosida uch guruh |
| | N.A. Xramova, 2003 [9] | Rozilik va ma'qullash fe'llari | Freym va funksional-semiologik yondashuv | "Mentallik" belgisi bo'yicha ikki kichik guruh; paradigmadagi cheklovlar |
| 0 | L.D. Mixaylova, 2009 [10] | "Gapirish" konsepti fe'llari | Kognitiv-lingvistik; maydon va komponent tahlili | *say, tell, speak, talk* – konsept o'zagi; o'zak va uch periferiya zonasi |

***3.1. Struktur-grammatik yo'nalish.***

Bu yo'nalishda fe'l shakli bilan ma'no orasidagi bog'liqlik, fe'l guruhlarini ajratish mezonlari va kategoriyalar tizimi aniqlandi. M. Jus ingliz fe'lini sud stenogrammalari kabi jonli nutq materialida tahlil qilib, zamon, aspekt, nisbat, modallik va tasdiq–inkor kategoriyalarining o'zaro kombinatsiyalashuvini tizimlashtirdi; zamon kategoriyasida an'anaviy uchlik o'rniga "o'tgan – o'tgan bo'lmagan" oppozitsiyasini ilgari surdi [1]. G. Leykof fe'llarni faol va nofaol guruhlarga ajratishda sintaktik sinovlardan foydalandi: nofaol fe'llar davomiy shaklda, buyruq mayli tuzilmalarida hamda *deliberately,*

*enthusiastically* kabi ravishlar bilan kela olmasligi subyektning irodaviy nazorati mezoni bilan izohlandi [2]. R. Palmer fe'l tizimini deskriptiv-struktur mezonlar asosida tahlil qilib, yordamchi va mustaqil fe'llar chegarasini, zamon, aspekt, mayl va nisbatning gap semantikasidagi o'rnini, shuningdek, frazali fe'llarning leksik-semantik yaxlitligini ko'rsatdi [3].

***3.2. Semantik-temporal va tarixiy-semantik yo'nalish.***

G.N. Leech zamonni sof xronologik o'lchov emas, balki nutqiy voqelikning so'zlovchi tomonidan subyektiv idrok etilishi sifatida talqin qildi; davomiylik va tugallanganlik shakllarini voqeaga ichki va tashqi nuqtayi nazardan qarash vositasi sifatida tahlil qilib, holat fe'llarining davomiy zamonlarda qo'llanishidagi cheklovlarni asosladi [4]. B. Comrie zamonni nutq vaziyatiga nisbatan grammatiklashgan deyksis sifatida ko'rib, mutlaq va nisbiy zamon hamda zamon va aspekt o'rtasidagi chegarani aniq parametrlar bilan belgiladi; kelasi zamonning modallik bilan uyg'unlashuviga ham to'xtaldi [5]. E. Pentilla qadimgi ingliz tilidagi ko'rish fe'llari (*seon, locian, sceawian*) ma'nosining tarmoqlanishini tadqiq qilib, jismoniy ko'rishdan aqliy faoliyatga ko'chish hamda maqsadli qarash bilan beixtiyor ko'rib qolish o'rtasidagi farqni dalillagan [6].

***3.3. Pragmatik-semantik yo'nalish.***

A. Vejbitska ingliz tilidagi 250 dan ortiq nutqiy akt fe'lini tabiiy semantik metatil (NSM) asosida tahlil qildi. Muallif J. Ostin va J. Syorlning nutqiy aktlar tasnifidagi noaniqliklarni tanqid qilib, har bir fe'l ma'nosini universal semantik ibtidolar (*say, know, want, think*) vositasida modellashtirdi, fe'llarni 37 ta semantik guruhga ajratdi va *order, command, ask, plead* kabi yaqin ma'noli fe'llar orasidagi ijtimoiy maqom, irodaviy bosim va emotsional munosabat jihatidan farqlarni ochib berdi [7]. Ishda leksikografik ta'riflarda uzoq vaqt dominant bo'lgan tavtologiya va aylanma izohlardan voz kechildi, fe'lning sintaktik xususiyatlari esa uning semantikasidan kelib chiqishi ko'rsatildi. Shu tariqa nutqiy faoliyat fe'llari pragmalingvistika doirasidan chiqarilib, qat'iy leksik-semantik tizimga ega birliklar sifatida talqin etildi.

***3.4. Funksional-kognitiv yo'nalish.***

Rus tilshunosligidagi uch dissertatsiya nutq va unga yondosh fe'llarni prototip, freym va konsept tushunchalari asosida o'rgangan. O.D. Dvornik *tell, say* va *speak* prototiplari asosida uch guruh nutq fe'llarining funksional kategorizatsiyasini 4000 dan ortiq badiiy va publitsistik misol asosida tadqiq qilib, kuzatish, transformatsiya, parafraza va komponent tahlil metodlarini uyg'unlashtirdi [8]. N.A. Xramova rozilik va ma'qullash fe'llarini freym (Ch. Fillmor, M. Minskiy) hamda funksional-semiologik (N.N. Boldirev) yondashuvlarni birga qo'llab o'rgandi, fe'llarni "mentallik" belgisiga ko'ra ikki kichik guruhga ajratdi va kategorial ma'no paradigmadagi cheklovlarda (masalan, buyruq maylining xos emasligida) namoyon bo'lishini ko'rsatdi [9]. L.D. Mixaylova "gapirish" konseptini *say, tell, speak, talk* tayanch fe'llari atrofida maydoniy modellashtirib, kognitiv o'lchovlar iyerarxiyasini ishlab chiqdi: "maqsadli yo'nalganlik" – konsept o'zagi, "ifoda usuli" – yaqin, "munosabat" – uzoq, "gapirish usuli" – chekka periferiya [10].

### *3.5. Umumlashma.*

O‘nta manbadan uchtasi (A. Vejbitska, O.D. Dvornik, L.D. Mixaylova) nutqiy faoliyat fe’llarini bevosita tadqiq obyekti qilgan, bittasi (N.A. Xramova) unga yondosh rozilik va ma’qullash fe’llarini o‘rgangan, qolgan oltitasi fe’l tizimini yoki boshqa semantik guruhlarni tahlil qilgan. Empirik baza jonli nutq stenogrammalari (M. Jus), qadimgi yodgorliklar (E. Pentilla), badiiy va publitsistik matnlar (O.D. Dvornik, L.D. Mixaylova) hamda izohli va sinonimlar lug‘atlaridan (L.D. Mixaylova) iborat. Metodlar sintaktik sinovlar va oppozitsiyalardan (M. Jus, G. Leykof) komponent, maydon, prototip va freym tahliliga hamda semantik ibtidolar orqali ta’riflashga qarab kengaygan.

## 4. MUHOKAMA (DISCUSSION)

Natijalar fe’l tadqiqotida izchil o‘tishni ko‘rsatadi: shakl va kategoriyalar tavsifidan (M. Jus, R. Palmer) semantik va deyktik talqinga (G.N. Leech, B. Comrie), so‘ngra pragmatik-semantik modellashtirishga (A. Vejbitska) va funksional-kognitiv tahlilga (O.D. Dvornik, N.A. Xramova, L.D. Mixaylova). Bu yo‘nalishlar bir-birini inkor etmaydi, balki to‘ldiradi: struktur-grammatik ishlar fe’l guruhlarini ajratishda sintaktik sinov mezonlarini bergan; NSM yondashuvi ma’noni aylanma izohlarsiz ta’riflash imkonini yaratgan; prototip va maydon nazariyalari esa tayanch fe’llar (*say, tell, speak, talk*) va ularning periferiyasi o‘rtasidagi munosabatni modellashtirgan. Nutqiy faoliyat fe’llarini mustaqil mikrotizim sifatida tahlil qilishda ushbu vositalarning uyg‘un qo‘llanishi maqsadga muvofiq ko‘rinadi.

Shu bilan birga, ko‘rib chiqilgan manbalarning barchasi bir tilli – ingliz tili – materialiga tayanadi. Shu sababli nutqiy faoliyat fe’llarining tillararo ekvivalentligi, semantik assimetriyasi va ikki tilli leksikografik talqini masalalari bu tadqiqotlar doirasidan tashqarida qolgan. A. Vejbitskaning tavtologiyaga qarshi ta’riflash tamoyili hamda L.D. Mixaylovaning o‘zak–periferiya modeli ingliz–o‘zbek chog‘ishtirma tahlil uchun metodologik tayanch bo‘lishi mumkin: ularni o‘zbek tilidagi *gapirmoq, aytmoq, demoq, so‘zlamoq* kabi tayanch fe’llar bilan qiyoslash nutqiy faoliyat fe’llari tizimini ikki tilda tavsiflash va lug‘atda talqin etishga imkon beradi. Bu tahlil muallifning “Nutqiy faoliyat fe’llari tizimi, semantik xususiyatlari va leksikografik talqini (ingliz va o‘zbek tillari misolida)” mavzusidagi tadqiqotining nazariy asosini tashkil etadi.

## 5. XULOSA (CONCLUSION)

Birinchidan, jahon tilshunosligida fe’l tadqiqi to‘rt asosiy yo‘nalishda – struktur-grammatik, semantik-temporal (tarixiy-semantik), pragmatik-semantik va funksional-kognitiv yo‘nalishlarda – rivojlangan. Ikkinchidan, tadqiqot e’tibori shakl tavsifidan ma’no, kommunikativ niyat va konsept modellashtirishga ko‘chgan, metodlar esa sintaktik sinovlardan komponent, maydon va prototip tahliliga kengaygan. Uchinchidan, nutqiy faoliyat fe’llari uch ishda bevosita o‘rganilgan va *say, tell, speak, talk* tayanch fe’llari ularning markaziy qatlamini tashkil etadi. To‘rtinchidan, ko‘rib chiqilgan tadqiqotlar bir tilli bo‘lgani uchun nutqiy faoliyat fe’llarini ingliz va o‘zbek tillarida chog‘ishtirma-leksikografik o‘rganish dolzarb bo‘lib qolmoqda.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

[1] Joos M. The English verb: form and meaning. – Madison: University of Wisconsin press, 1964. – 251 p.

[2] Lakoff G. Stative Adjectives and Verbs in English. – Harvard: Harvard University, Computation Laboratory, Report NSF-17, 1966.

[3] Palmer R. A Linguistic study of the English verb. – Miami: University of Miami Press, 1968. – 199 p.

[4] Leech G.N. Meaning and the English Verb. – London: Longman, 1971. – 131 p.

[5] Comrie B. Tense. – Cambridge: Cambridge University Press, 1986. – 139 p.

[6] Penttilä E. The Old English Verbs of Vision. A Semantic Study. – Helsinki: Société Néophilologique, 1956. – 211 p.

[7] Wierzbicka A. English speech act verbs: a semantic dictionary. – Sydney: Academic Press, 1987. – 397 p.

[8] Дворник О.Д. Функциональная категоризация глаголов говорения в современном английском языке: Дисс… канд. филол. наук. – Белгород, 2003. – 155 с.

[9] Храмова Н.А. Глаголы одобрения и согласия в английском языке: Семантический, синтагматический, морфологический аспекты: Дисс… канд. филол. наук. – Санкт-Петербург, 2003. – 188 с.

[10] Михайлова Л.Д. Глагольные способы репрезентации концепта «ГОВОРЕНИЕ» в современном английском языке: Дисс… канд. филол. наук. – Ростов-на-Дону, 2009. – 144 с.